



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

№1

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2024



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2024 йил, 1-сон

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎЗР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:
и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир
ўринбосари:**
и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:
и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:
и.ф.д. Ф.А.Сафаров
катта ўқит. Ш.З.Ўразов

Техник муҳаррир:
и.ф.н., доц. А.Н.Холиқулов

Корректор:
PhD С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:
ассис. Х.Н.Очилова

1 йилда 4 мартаба
чоп этилади.

**Ўзбекистон ҳудудида
тарқатилади.**

Тахририят манзили:
140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(66)233-17-88

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@inbox.uz

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори в.б., DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти в.б., DSc

МУНДАРИЖА :

НАЗАРИЯ ВА МЕТОДОЛОГИЯ	
Мурод Мухаммедович Мухаммедов, Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев Иқтисодий тафаккур – иқтисодий тараққиётнинг муҳим омили	5
Muxitdin Abduxamidovich Aynakulov Klaster doirasida xizmat ko‘rsatish kooperatsiyasini tashkil etish va rivojlantirish tamoyillari va shakllari	16
Barchinoy Shonazar qizi Mavlanova Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari	21
Бахтияржон Бултурбаевич Муллабаев Худудлар ривожланишидаги номуносибликни камайтиришда хорижий тажрибалардан фойдаланиш	24
Шаҳобиддин Зиядуллаевич Ўрозов Марказий Осиёда иккинчи ренессансга асос солишда Амир Темур ва теурийларнинг хизматлари	31
Nodir Djumanazarovich Khusanov O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirishda strategiya va mexanizmlarni doimiy ravishda takomillashtirish yo‘llari	35
ИННОВАЦИЯ ВА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ	
Shamsiddin Kiyamiddinovich Yuldashev, Lola Nazarovna Khalikova The role of human capital in forming the digital economy	40
Mavluda Azamatovna Shodmonova Raqamlashtirishning logistika samaradorligiga ta’siri	42
САНОАТ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ	
Ruziboy Normaxmatov, Jasur Kaxarov, Akram G‘afurov Olma mevasi – biologik faol moddalarning muhim manbaidir.	45
Отабек Джурабаевич Джурабаев Определение направлений оптимизации операционной стратегии и повышение экономического потенциала хлопково-текстильных кластеров	48
ХИЗМАТ КЎРСАТИШ ВА СЕРВИС	
Присбек Иватов Аҳолига хизмат кўрсатишда деҳқон бозори фаолиятини ривожлантириш ва тартиблаштириш	56
Фарход Анварович Сафаров Мослашувчан бошқарув тамойиллари асосида хизмат кўрсатиш корхоналари рақобатбардошлигини таъминлаш	60
Baxtiyor Nusratovich Nosirov Mintaqaning uy-joy kommunal xizmatlar sohasida aloqa va axborotlashtirishni rivojlantirishni modellashtirish	64
Акмал Анвар ўғли Рахматов Мижозларга савдо хизматлари кўрсатишни такомиллаштиришнинг замонавий йўналишлари	70
Umid Xolboyevich Xolboyev Xizmatlar sohasi raqobatbardoshligini oshirishning nazariy masalalari	75
To‘lqin Ismatulla o‘g‘li Yahyoyev Qurilish xizmatlarini iqtisodiy tahlil obyekti sifatida xalqaro standartlar asosida tasniflash	77

ERKIN IQTISODIY ZONALAR FAOLIYATINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etishni mazmuni, mamlakatimizda uning faoliyatini rivojlanishi va o‘ziga xos jihatlari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy zona, erkin iqtisodiy zona, siyosat, islohot, investitsiya, omil, loyiha.

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda chuqur ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, jamiyat hayotini modernizatsiya qilish va liberallashtirish shular qatoriga xos bo‘lib, ushbu o‘zgarishlar iqtisodiyot tarmoqlariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Jumladan, energetika, neft-gaz sanoati, geologiya, transport, yo‘l qurilishi, qishloq va suv xo‘jaligi, ichimlik suvi, issiqlik ta‘minoti va boshqa tarmoqlarda chuqur tarkibiy islohotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, yetakchi tarmoqlarni modernizatsiya qilish va raqobatbardoshlikni oshirish dasturlari qabul qilingan. Ushbu dasturlarni yo‘nalishi savdo-sotiq munosabatlarini samarali rivojlantirishga qaratilgan. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ham qo‘shni davlatlar bilan chegara hududlarda erkin savdo zonalarini faoliyatini yo‘lga qo‘yish masalasi alohida ko‘rsatib o‘tilgan [1]. Mazkur masalaning yechimi bo‘lib iqtisodiy savdo zonalarini tashkil etish va samarali rivojlantirish hisoblanadi. Iqtisodiy zona xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun yaratilgan maxsus imtiyozlarga ega hudud sifatida qaraladi. Imtiyozlar soliqlarni soddalashtirish, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, chet ellik ishchilarni ishga joylashtirish va maxsus infratuzilmani qo‘llab-quvvatlashdan iborat investitsiya siyosati kabilarni o‘z ichiga oladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Erkin iqtisodiy zonalar faoliyati yuzasidan turli tadqiqotlar olib borilmoqda. Chunki, erkin iqtisodiy zona davlat tomonidan tuzilgan milliy iqtisodiyotga yordam beradigan tuzilgan va shakllantirilgan mustaqil iqtisodiy hududdir. Ba‘zi tadqiqotchilar erkin iqtisodiy zonani o‘zida hudud suvereniteti, iqtisodiy komplekslar, keng ishlab chiqarish va maxsus mexanizmlarni aks ettiradi, deb ta‘kidlaydilar [2]. Shu bois, erkin iqtisodiy zona maxsus iqtisodiy zona sifatida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun imtiyozli shartlar amal qiladigan davlat tarkibidagi alohida ajratilgan hudud bo‘lib ham sanaladi. Bunday zonalar butun mamlakat miqyosida, shuningdek alohida hududlar yoki tarmoqlarda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish maqsadida samarali tashkil etiladi.

Erkin iqtisodiy zonaning muhim turi maxsus iqtisodiy zona faoliyati bo‘yicha ba‘zi tadqiqotchilar erkin portlar, bo‘jdan xoli do‘konlar), erkin ishlab chiqarish hududlari, erkin iqtisodiy hududlar, texnologik- innovatsion parklar, transchegaraviy hududlar, xizmat ko‘rsatish hududlari, qishloq xo‘jalik, erkin tadbirkorlik hududlari kabi turlarini xorijiy mamlakatlar amaliyotida qo‘llanilishini izohlab o‘tganlar [3]. Unga asosan, biznes uchun yaratilgan maxsus shart-sharoitlar uchun faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar erkin iqtisodiy zonaning rezidenti bo‘lishiga, ya‘ni o‘z ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish va idoralarni zona hududida bevosita joylashtirishga harakat qiladilar.

Shuningdek, investitsion siyosat yuzasidan amalga oshirilgan tahlillarga ko‘ra, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar sanoatini rivojlantirish strategiyalarini amalga oshirishda jahondagi 140 ta davlatlarda 4500 dan ortiq erkin iqtisodiy zonalar mavjud bo‘lib, ularda 70 mln. nafarga yaqin kishini mehnat qilishi asoslangan [4]. Biroq, Xitoy tajribasiga ko‘ra, erkin iqtisodiy zonalarini samarali shakllantirish va rivojlantirish borasida quyidagi tajribalar to‘plangan:

- puxta o‘ylangan me‘yoriy-huquqiy asoslarning yaratilganligi;
- iqtisodiy, moliyaviy va boshqa imtiyozlarning puxta tabaqalashganligi;
- zonalarda moslashuvchan investitsiya siyosatini amalga oshirilganligi;
- ishlab chiqarish, ilmiy tadqiqot va savdo-sotiq tizimini kompleks rivojlantirishga qaratilganligi;
- arzon va malakali ishchi kuchining mavjudligi;
- eksport uchun ochiq imkoniyatlarni yaratilishi;
- xorijiy investorlarni sug‘urtalashni samarali amalga oshirilishi;
- zona faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi [5].

Darhaqiqat, erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish va rivojlantirish dolzarb masala bo‘lib qaralib, ular bevosita respublikamiz iqtisodiy muammolarini hal etish va ishlab chiqarish


jarayonlariga innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha yangi g'oyalarni shakllantirish yo'nalishi sifatida qaraladi. Erkin iqtisodiy zonalar ichki bozorni yuqori sifatli mahsulotlar bilan to'ldirish, ilm-fan va texnikaning ilg'or yutuqlarini mahalliy ishlab chiqarishga keng joriy etish, aholi bandligini oshirish, eksportni kengaytirish, valyuta tushumlarini ko'paytirish va kadrlar tayyorlash kabi masalalarni hal qilishga imkon beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini tadqiq qilish borasida tadqiqotning tahlil, sintez, iqtisodiy usul, mantiqiy tahlil, induktiv, deduktiv va abstrakt fikrlash kabi usullardan samarali foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Mamlakatimiz iqtisodiyotini samarali rivojlantirish mexanizmi sifatida maxsus zonalar tizimi, jumladan, erkin iqtisodiy zonalar tizimini shakllantirish bo'lib, jahonning ko'plab mamlakatlarida iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish o'z muvaffaqiyatini ko'rsatmoqda [6]. Shu bois, erkin iqtisodiy zonalar tashkil etishning asosiy maqsadlari quyidagi yo'nalishlardan iborat bo'ladi:

- mamlakat va hududlarning iqtisodiy o'sishini ta'minlash;
- sanoat, qishloq xo'jaligi, savdo va turizmni rivojlantirish muammolarini hal qilish;
- milliy iqtisodiyotga xalqaro mehnat taqsimoti tamoyillarini joriy qilish;
- tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi turmush darajasini oshirish.

Ayniqsa, so'nggi 10 yil davomida O'zbekistonda mahsulot ishlab chiqarish, transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi yaratilib, ichki va jahon bozori uchun raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha zamonaviy va yuqori texnologiyali investitsiya loyihalarini amalga oshirish imkonini berdi. Bu esa erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish orqali ishlab chiqarishni tashkil etishning zamonaviy shakllarini faollashtirish uchun yetarli shart-sharoit yaratadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, erkin iqtisodiy zonalar faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillar o'z asosiy unsurlariga ega bo'lib, ular quyidagi yo'nalishlardan iborat bo'ladi (1-rasm):



1-rasm. Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillarning muhim unsurlari¹

¹ Muallif ishlanmasi.

Rasm tahliliga ko‘ra, ushbu unsurlar iqtisodiyot tarmoqlarini isloh qilish, xususan ochiq bozorda mahsulot sifatini yaxshilash, mahsulot tannarxni pasaytirish, yangi texnologiyalarni jalb etish va bozor islohotlarini samarali amalga oshirishni taqozo etadi. Bu borada xalqaro ishlab chiqarish zanjirlariga integratsiyalashish va mehnat bozori talablariga javob berish masalalarini ham hisobga olish lozim. Shular bilan bir qatorda, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi rolini inobatga olgan holda erkin iqtisodiy zonalarda ishtirok etuvchi subyektlarning korxonalarini tashkil etishga investitsiyalar jalb qilishga nisbatan imtiyozlar beriladi. Ushbu holatlar quyidagi yo‘nalishlardan iborat bo‘ladi:

- erkin iqtisodiy zona ishtirokchilari uchun eksportga jo‘natilgan mahsulotlarga nisbatan olib kiriladigan xom ashyo, materiallar va butlovchi qismlarga o‘z faoliyati davrida bojxona to‘lovlarini to‘lashdan ozod qilish;

- erkin iqtisodiy zona doirasida chet el valyutasida hisob-kitob va to‘lovlarni amalga oshirish, boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlaridan tovarlar yetkazib berish va xizmatlar ko‘rsatish uchun xorijiy valyutada to‘lovlarni amalga oshirish yoki qulay to‘lov va hisob-kitob shartlaridan foydalanishni joriy qilish.

Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini rivojlanish holati mamlakat hududlarining belgilangan joyi yoki zonasida faoliyat boshlagan korxonalar faoliyati bilan belgilanadi. Bu borada iqtisodiy zona doirasidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha yuqori o‘sish sur‘atlari kuzatilishi lozim. Shunga asosan, O‘zbekiston Respublikasida tashkil qilingan iqtisodiy zonalar soni so‘nggi yillarda ko‘payib bormoqda. Jumladan, 2022-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra mamlakatimizda maxsus iqtisodiy zonalar soni 21 tani, kichik sanoat zonalar soni esa 114 tani tashkil etgan [7]. 2018-yilda esa mamlakatimizda jami 12 ta erkin iqtisodiy va 45 ta sanoat zonasi faoliyat ko‘rsatgan.

Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini amalga oshirish uchun investitsiya loyihalarini amalga oshirish lozim bo‘lib, buning uchun jozibador takliflarni e‘tiborga olish lozim. Shu bilan birga, xorijiy sarmoyadorlar tomonidan erkin iqtisodiy zonalarda ishlab chiqarishni tashkil etish uchun sarmoya kiritish jarayoni ham faollashtirilishi lozim. Bu holatda ularni oldida turgan vazifa bo‘lib xorijiy investorlar ishtirokidagi loyihalarning mavjudligidir. Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatida bir qator muammolar ham mavjud bo‘lishi mumkin. Bular qatoriga ularni huquqiy tartibga solishdagi bir-birini takrorlaydigan va zid bo‘lgan qonunosti hujjatlari, rivojlanmagan infratuzilma va kommunikatsiyalar, boshqaruvdagi byurokratiya, shuningdek, loyihalarni tanlash, moliyalashtirish, bank xizmatlarini olishdagi muammolarni kiritish mumkin.

Biroq, yangi iqtisodiy zonalarini tashkil etishda esa investitsiya loyihalarini joylashtirishning maqsadga muvofiqligi, loyihalarni mavjudligi va ularni amalga oshirishga tayyorgarlik ko‘rish darajasini chuqurroq o‘rganib borish zarur. Bu borada farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan zonalarda investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Yangi tashkil etilgan zonalarda esa investitsiya loyihalari ishlab chiqilib, ekspertizadan o‘tkazilmoqda. Eksportni rivojlantirish va mahalliy xom ashyoni chuqur qayta ishlash bo‘yicha yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni tashkil etish maqsadida erkin iqtisodiy zonalar tashkil etildi. Yirik kompleks erkin iqtisodiy zonalarda xorijiy investorlarga o‘zining ustuvor yo‘nalishlaridan kelib chiqib, aniq maqsadlarni ishlab chiqish va ichki bozorga chiqish uchun yetarli shart-sharoitlar yaratish zarur.

Xulosa va takliflar. Xulosa shuki, respublikamizda erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini rivojlantirish O‘zbekiston hududlarining boy tabiiy-iqtisodiy, mineral-xom ashyo, ilmiy-texnikaviy va mehnat salohiyatidan to‘liq foydalanish hamda raqobatbardosh sanoat korxonalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa ishlab chiqarish va xususiy tadbirkorlik, sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi daromadlarini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, erkin iqtisodiy zonalar faoliyati davlat tomonidan iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, yangi ish o‘rinlari yaratish va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida tashkil etilishi lozim. Ularni maqsadi tadbirkorlarga soliq imtiyozlari, bojxona imtiyozlari, soddalashtirilgan ro‘yxatga olish va litsenziyalash tartib-qoidalari, infratuzilma va resurslardan foydalanish kabi biznes shart-sharoitlarini yaratishga xizmat qilishi lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini rivojlantirish quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishga imkon beradi:

- biznes uchun qulay muhitni yaratadi;
- innovatsiya va texnologiyalarni rivojlantiradi;
- eksport ishlab chiqarish hajmini oshiradi;
- xorijiy investor va mutaxassislarni keng jalb qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”ги PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

2. Xujamkulov D.Y. Erkin iqtisodiy hududlar. Darslik. – T.: IQTISODIYOT, 2019. – 14 b.

3. Voxidova M.X. Erkin iqtisodiy zona - maxsus iqtisodiy zonaning bir ko‘rinishi sifatida. // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 1, ISSUE 4, May, 2021. - 137-138 b. ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2021: 5.423

4. Федяшева Г. Основные направления развития свободных экономических зон в Узбекистане. // Материалы XI Форума экономистов. - Ташкент: IFMR, 2019. - 284-289 с.

5. Rashidov M.K. Erkin iqtisodiy zonalarini rivojlantirishning jahon tajribasi. // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. №5, sentabr-oktabr, 2018-yil, 5/2018 (№ 00037). - 8-9 b. www.iqtisodiyot.uz

6. Сатторкулов О.Т., Узайдуллаев Ш.Ш., Турдикулова Г.О. Факторы развития свободных экономических зон в Узбекистане. // Ж.: Молодой учёный. Экономика и управление, №9 (299), февраль, 2020. - с. 62.

7. Хотамов I., Madraximova G. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik. – T.: “Innovatsiyon rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2022. - 88 b.

Б.Мавланова	В.Мавланова
Особенности деятельности свободных экономических зон	Specific characteristics of the activity of free economic zones
<p>Аннотация: в данной статье освещается содержание организации свободных экономических зон, развитие их деятельности в нашей стране и их конкретные аспекты.</p> <p>Ключевые слова: экономическая зона, свободная экономическая зона, политика, реформа, инвестиции, фактор, проект.</p>	<p>Abstract: this article highlights the content of the establishment of free economic zones, the development of their activities in our country and their specific aspects.</p> <p>Keywords: economic zone, free economic zone, policy, reform, investment, factor, project.</p>

Бахтияржон Бултурбаевич Муллабаев – Наманган муҳандислик-қурилиш институти доценти, иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори

ХУДУДЛАР РИВОЖЛАНИШИДАГИ НОМУТАНОСИБЛИКНИ КАМАЙТИРИШДА ХОРИЖИЙ ТАЖРИБАЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

Аннотация: Ушбу мақолада Ўзбекистон Республикасининг минтақавий ривожланиш номутаносиблигини тартибга солиш бўйича ривожланган мамлакатлар тажрибасидан оқилона фойдаланиш йўналишлари очиб берилган.

Калит сўзлар: минтақавий ривожланиш, номутаносиблик, инновацион жараён, мезонлар, худудий сиёсат, ресурслар, интеграция.

Кириш. Ўзбекистон Республикаси иқтисодиётига ўхшаш ривожланиш анъаналарига эга, мамлакатнинг кўлами ва Европа Иттифоқи мамлакатларида худудий сиёсатга ҳам катта эътибор берилиши мақсадга мувофиқ бўлиб, ушбу давлатларнинг ривожланиш фарқларини тартибга солиш бўйича чора-тадбирларни белгилаш тажрибаси муҳим аҳамият касб этади. Худудий сиёсат умумий иқтисодий вазиятга қараб ўз йўналишларини ўзгартиради. 1960-1970 йилларда Европада фаол минтақавий можароларни камаййтиришга қаратилган минтақавий сиёсатнинг компенсацион хусусияти 1980

ISSN 2091-5187

∞ “СЕРВИС” ∞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

06.03.2024 йилда теришга берилди. 29.03.2024 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табоғи 15,76. Ҳисоб-нашриёт
табоғи 12,5. Адади 100 нусха. Буюртма № 0024А/30.

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.